

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAFAROVA ZILOLA TOLIBOVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TARBIYA ROMANLARINING SPETSIFIK
BELGILARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Safarova Zilola Tolibovna

Ingliz va o'zbek tarbiya romanlarining spetsifik belgilari..... 3

Сафарова Зилола Толибовна

Специфические признаки английских и узбекских романов воспитания 21

Safarova Zilola Tolibovna

Specific Features of English and Uzbek Bildungsromans..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAFAROVA ZILOLA TOLIBOVNA

INGLIZ VA O'ZBEK TARBIYA ROMANLARINING SPETSIFIK
BELGILARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/Fil2779 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

O'rayeva Darmon Saidaxmedovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirov Abdurahim Abdimutalipovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Hoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «01» aprel soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (255 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «15» mart kuni tarqatildi.

(2023-yil «15» mart da № 23-12 - raqamli reestr bayonnomasi.)



M.Q.Baqoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M.Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida roman janrining xilma-xilligi, rivoji, tuzilishining epik-dramatik xususiyatlari muayyan tipologik alomatlariga ega bo'la boshlagan Yevropa, xususan, ingliz nasriy romannavisligi ma'lum davrlarda markaziy mavqe egallashiga sabab bo'lgan omillar interpretatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda romanchilikning alohida bir turi sifatida rivojlanib kelayotgan tarbiya romanlarining o'ziga xos badiiy taraqqiyot qonuniyatlari, ijod prinsiplari, adabiy-estetik tajribalari, janriy tabiati, poetik shakli va uslubi, motiv hamda obrazlari, tili, fiziologik-psixologik xususiyatlarini aniqlash badiiy tafakkur taraqqiyoti tarixini yoritish, yoshlar tarbiyasida adabiyotning estetik roli muhimligini ochishga imkon yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida qadimdan hozirgacha yetib kelgan jahon folklori hamda yozma adabiyotida bolalar va kattalar o'rtasida kechadigan munosabatlar badiiy talqiniga, jahon adabiyoti namoyandalari tomonidan yaratilgan tarbiya mavzusidagi asarlar tadqiqiga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Shu nuqtai nazardan jahon, jumladan, ingliz adiblari ijodidagi tarbiya romanlarining mavzu, motiv, obrazlar badiiy talqinidagi o'ziga xoslik va mushtarakliklarni o'zbek yozuvchilari poetik tajribalari bilan qiyoslab o'rganish, ikkala xalq bolalar adabiyotida an'anaviylik va badiiy mahorat masalalarida o'xshashliklar borligini, tipologik mohiyatini, roman janriy xilma-xilligi o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-konseptual bog'lanishlarni, roman janrining tadrijiy taraqqiyotini, ustuvor poetik alomatlar, obrazli strukturalar, adabiy ta'sir va milliy mentalitetning saqlanishi qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining yetakchi taraqqiyot tamoyillari, ijodkorlar uslubidagi poetik izlanishlarning asoslari, an'ana, novatorlik, adabiy ta'sir masalalarini hamda poetik tafakkur yangilanishiga xos belgilarni qiyosiy o'rganishga qiziqish kuchaydi. Shungacha asosiy e'tibor ko'proq o'zbek bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli, bolalar adabiyotining vujudga kelishi, shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar va ijodkorlar, bolalar she'riyati hamda unda ma'naviyat masalasi, obraz yaratish mahorati kabi masalalar tadqiqiga qaratilgan. "Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda"¹, shu ma'noda u aks etgan adabiyotimiz namunalarini har tomonlama chuqur tadqiq qilish lozim. Qolaversa, bolalar tarbiyasiga e'tibor adabiyotda hamisha yetakchi vazifalardan biri bo'lib, har bir milliy adabiyotda unga alohida badiiy-estetik hodisa sifatida yondashib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги Қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги ПҚ-4479-сон қарори. Lex.uz интернет нашри. – 2019 йил, 5 октябрь.

to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida "Tarbiya roman"lari tarixi va rivojlanishini o'rganishda D.Bakli², M.Xirsh³, T.Jeffers⁴, G.Aleksandra⁵ va boshqalarning tadqiqotlari nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus adabiyotshunosligida M.M.Baxtin⁶, Yu.S.Kamardina⁷, N.V.Osipova⁸, I.A.Vlodavskaya⁹, V.N.Pashigorev¹⁰, V.A.Byachkova¹¹ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari bu jihatdan e'tiborga molik. Shuningdek, Ye.V.Rijanova Gyotening "Vilgelm Meysterning o'qish yillari" asarini tarbiya romani sifatida o'rganib, janr

² Buckley J.H. *Season of Youth: The Bildungsroman from Dickens to Golding*. – Harvard: Harvard University Press, 1974. – P. 17-18.

³ Hirsch M. *The Novel of Formation as Genre: Between Great Expectations and Lost Illusions in Studies in the Novel* // In: *Genre* Norman NY, 12 (1979), Nr. 3. – P. 293-311.

⁴ Jeffers, Thomas L. *Apprenticeships. The Bildungsroman from Goethe to Santayana*. – New York: Palgrave MacMillan, 2016. – P. 49.

⁵ Alexandra Grenier. *A Romantic Bildung: The Development of Coming-of-Age Novels in the Romantic Period (1782-1817)*. – August, 2016.

⁶ Бахтин М. Эстетика словесного творчества / М. Бахтин; сост. С.Бочаров. М.: Искусство, 1986. – С. 212-213.

⁷ Камардина, Ю.С. Роман Ч.Диккенса "Жизнь и приключения Николаса Никльби" как роман воспитания: проблемы жанровой поэтики: Автореф. дисс.... кандидата филологических наук. Самара. – 2011. – 21 с.

⁸ Осипова Н. "Довид Кошперфильд" Ч.Диккенса и "Пенденнис" У.Теккеря – два варианта воспитательного романа: Автореф. канд. филол. наук. – М., 2001. – 24 с.

⁹ Влодавская И.А. Поэтика английского романа воспитания начала XX века. Типология жанра. – Киев: Вища школа, 1983. – 183 с.

¹⁰ Пашигорев В.Н. Роман воспитания в немецкой литературе XVIII-XX веков. Генезис и эволюция: Автореферат диссертации. – Моск. пед. гос. ун-т, 2005. – С. 7-36.

¹¹ Бячкова В.А. Дэвид Кошперфильд, Пип и Джейн Эйр в "Восточной" и "Западной" литературе XX века (сопоставительный анализ романов Ш.Бронте и Р.Н.Гюнтекина). <https://cyberleninka.ru/article/n/devid-kopperfeld-pip-i-dzheyn-eyr-v-vostochnoy-i-zapadnoy-literature-xx-veka-sopostavitelnyy-analiz-romanov-sh-bronte-i-r-n>

elementlarini qahramon hayoti misolida tadqiq qilgan.¹² S.Bubikova¹³, S.Txamarana¹⁴, T.Boes¹⁵, L.S.Konkina¹⁶, P.Golben¹⁷ kabi olimlarning tadqiqotlari ham tarbiya romanlarining janriy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgani bilan diqqatni tortadi.

O'zbek adabiyotshunosligida N.A.Mahmudova dissertatsiyasida ingliz adabiyotida tarbiya romani janri tipologiyasi, tur va xususiyatlari, uning o'ziga xos badiiy-estetik hodisa ekanligi Ch.Dikkens ijodi misolidagina ochib berilgan.¹⁸ X.Muxammedova¹⁹, D.Ro'zmatova²⁰ dissertatsiyalarida ham bu xususida ayrim mulohazalar bildirib o'tilgan. Biroq bu tadqiqotlar o'zbek bolalar adabiyoti muammolarining boshqa xalqlar bolalar adabiyoti muammolari bilan qiyosiy tahliliga bag'ishlangan emas. Shundan kelib chiqib, o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga jahon adiblari adabiy-estetik tajribalarining ta'sirini dunyo adabiyoti kontekstida tadqiq etish va adabiy ta'sir xususiyatlarini, janriy-uslubiy takomil belgilarini, xususan, ingliz va o'zbek tarbiya romanlarining janriy tabiati, takomil bosqichlariga bag'ishlangan ilk tadqiqotlardan ekanligi mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasining "Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek adabiyotida tarbiya romanlarining spetsifik belgilarini qiyosiy tadqiq etish asosida mushtarak xususiyatlari, taraqqiyot omillari, badiiy-uslubiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarbiya romanlarining genezisi, romanchilikdagi o'rni, poetik tabiati, ingliz va o'zbek adabiyotidagi badiiy taraqqiyot xususiyatlarini aniqlash;

tarbiya romanlarining janriy tabiati, spetsifik belgilari, avanyur, pikaresk (ayyorlik) va gotik romanlar bilan munosabatini ochib berish;

¹² Рыжанова Е.В. "Вильгельм Мейстер" И.В.Гете как роман воспитания: соответствие жанру. – Вестник Пермского университета. – Выпуск 1 (17). – 2017. – С.97-105.

¹³ Бубикова С. The Literary Image of Man in the Process of Becoming: Variations of the Bildungsroman Genre in English and American Literature. Article in American and British Studies Annual. – November. – 2011. – P.9-23.

¹⁴ Txamarana S. Origin and Development of Bildungsroman Novels in English Literature. International Journal of English Language, Literature and Humanities. India, Volume III, Issue VI, August 2015 – ISSN 2321-7065. – P. 22.

¹⁵ Tobias B. Modernist Studies and the Bildungsroman: A Historical Survey of Critical Trend. Literature Compass 3/2 (2006): 230–243, 10.1111/j.1741-4113.2006.00303.

¹⁶ Конкина Л.С. Роман воспитания в концепции М.М.Бахтина (к Бахтинской типологии романа.) Специальный выпуск "Актуальные проблемы гуманитарных наук". – Сентябрь. 2003 г. – С.139-145.

¹⁷ Golben, P., Karabakir T. "The Bildungsroman As Monomythic Fictional Discourse: Identity Formation And Assertion In Great Expectations" // Humanitas International Journal of Social Sciences, 2019. – P. 318-336; Крупенина М.И. Роман Ч. Диккенса "Большие надежды" как роман-инициация // Историческая и социально-образовательная мысль, Т. 8, no. 3-2, 2016. – С. 162-165.

¹⁸ Махмудова Н.А. Чарльз Диккенс ижодида тарбия романи жанри типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Тошкент, 2020. – 176 б.

¹⁹ Мухаммедова Х.Э. Чарльз Диккенс асарларида аёл характери типологияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2019. – 54 б.

²⁰ Ruzmatova D.R. The Kite Runner" by Khaled Hosseini // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) <http://ijpsat.ijsht-journals.org> Vol. 11 No. 1 October 2018. – P. 31-34.

ingliz va o'zbek tarbiya romanlari syujet va kompozitsiyasidagi tipologik belgilarni dalillash;

ingliz va o'zbek tarbiya romanlarida kattalar va bolalar munosabati, maktab hayoti tasvirining milliy mental xususiyatlar asosida berilishini asoslash;

ingliz va o'zbek adabiyotida tarbiya romanlarining asosiy obrazlar tizimida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, yetim bolalar obrazi, ular turmush tarzining realistik ifodasida ijodkorlar uslubining yaqinligini ko'rsatib berish;

ingliz va o'zbek adabiyotida o'gay bola va ota-onalar obrazi tasvirida o'xshash ifoda vositalarining qo'llanishini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek adabiyotidagi tarbiya romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek bolalar adabiyotidagi tarbiya romanlarining spetsifik belgilari, ularda yetimlik hamda o'gaylik motivlari, obrazlar badiiy tasviri, poetik talqini tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, intertekstual, funksional-interpretatsion, lingvopoetik, analitik hamda psixanalitik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

tarbiya romanlari o'z janriy tabiati, badiiy-estetik taraqqiyot qonuniyatlari, poetik shakli va uslubi, motiv va obrazlari, fiziologik-psixologik jihatdan yoshlar dunyoqarashi hamda turmush tarziga muvofiq yaratilishi, har bir xalqning milliy mentaliteti, diniy-irfoniy qarashlariga tayanilishi, tarbiyaviy g'oyalarning alohida ta'kidlanishi bilan belgilanganligi aniqlangan;

tarbiya romanlarida ijtimoiy hayotni badiiy matnda qayta yaratish tendensiyasining yetakchiligi, mazkur tendensiyaning individual-shaxsiy taqdir, sinflar, millatlar taqdirini yoritishdagi roli, tarbiya romanlarining spetsifik belgilari avangard, pikaresk va gotik roman belgilari umumlashuvida namoyon bo'lishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tarbiya romanlarida yetimlik va o'gaylik og'zaki hamda yozma adabiyotning an'anaviy motivi ekani, ularning talqin qilinishida milliy qarashlar ta'siri, kattalar-u bolalar munosabati, maktab hayoti tasvirining milliy mental xususiyatlari, ularda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, yetim va o'gay bolalar, o'gay ona yoki o'gay otalar obrazi yetakchilik qilishi asoslangan;

ingliz va o'zbek adabiyotida tarbiya romanlarining badiiy-estetik taraqqiyoti jahon va milliy folklor, yozma adabiyot an'analari, romanchilikda ijodkorlarning adabiy-estetik tajribalari asosida kechganligi, badiiy vositalardan foydalanish mahoratining yaqinligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon xalqlari, jumladan, ingliz va o'zbek adabiyotida tarbiya romanining spetsifik hamda badiiy takomil belgilari, unga oid shakliy-uslubiy izlanishlar oydinlashtirilgan;

adabiyotda yetim, o'gay, daydi ko'cha bolalari, o'gay ona, o'gay ota xarakter-xususiyatlari tasviri va talqini bilan bog'liq jihatlar aniqlangan;

jahon, jumladan, ingliz va o'zbek bolalar adabiyotida yetimlik hamda o'gaylik motivlari talqinida dunyo xalqlari folklori va adabiyoti namunalari ijodiy manba bo'lib xizmat qilgani qiyosiy-tipologik aspektda asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi dissertatsiyada muammoning aniq yondashuv usullari, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani hamda tadqiqot o'zbek va jahon, xususan, ingliz bolalar adabiyoti namunalari bilan qiyoslanib, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, intertekstual, funksional-interpretatsion, lingvopoetik, analitik hamda psixoanalitik tahlili vositasida asoslanganligi, shu asosda chiqarilgan ilmiy mushohada, takliflarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz hamda o'zbek bolalar adabiyotining qiyosiy tadqiqi orqali ularga xos mushtarak motiv va obrazlarni aniqlash asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy umumlashmalar jahondagi turli xalqlar bolalar adabiyoti xususiyatlari to'g'risidagi keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** respublika oliy o'quv yurtlarida "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiy tanqidchilik tarixi", "Adabiy aloqalar", "Zamonaviy xorijiy adabiyot" fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, ta'lim tizimida bolalar adabiyotini o'qitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tarbiya romanlarining spetsifik belgilarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tarbiya romanlari o'z janriy tabiati, badiiy-estetik taraqqiyot qonuniyatlari, poetik shakli va uslubi, motiv va obrazlari, fiziologik-psixologik jihatdan yoshlar dunyoqarashi va turmush tarziga muvofiq yaratilishi, har bir xalqning milliy mentaliteti, diniy-irfoniy qarashlariga tayanilishi, tarbiyaviy g'oyalarning alohida ta'kidlanishi bilan belgilanganligiga oid olingan ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-18 "Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2022-yil 9-sentyabrdagi №39-08-2199-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek bolalar adabiyotining yetimlik va o'gaylik motivlari talqini aks etgan namunalaridan mavjud dasturlar, qo'llanmalarda keng foydalanilib, ta'lim jarayonida tarbiya metodlari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

tarbiya romanlarida ijtimoiy hayotni badiiy matnda qayta yaratish tendensiyasining yetakchiligi, mazkur tendensiyaning individual-shaxsiy taqdir, sinflar, millatlar taqdirini yoritishdagi roli, tarbiya romanlarining spetsifik belgilari avangard, pikaresh va gotik roman belgilari umumlashuvida namoyon bo'lishiga oid xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Erasmus+

dasturining ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbekistan State University of World Languages and Ruhr University Bochum (Germany) – 2020-1-DE01-KA107-005433 – (Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Boxumdagi Rur universiteti (Germaniya) o'rtasidagi kredit safarbarligi) nomi xorijiy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2022-yil 10-noyabrda №IRD/22-390-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz va o'zbek tarbiya romanlarining qiyosiy tadqiqi orqali ularga xos mushtarak motiv va obrazlarni aniqlash asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar mazkur dastur mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tarbiya romanlarida yetimlik va o'gaylik og'zaki hamda yozma adabiyotining an'anaviy motivi ekan, ularning talqin qilinishida milliy qarashlar ta'siri, kattalar va bolalar munosabati, maktab hayoti tasvirining milliy mental xususiyatlari, ularda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, yetim va o'gay bolalar, o'gay ona yoki o'gay otalar obrazi yetakchilik qilishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" teleko'rsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-sentabrda №1/228-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlarning ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan hamda o'zbek bolalar adabiyotining jahon adabiyoti konteksti bilan bog'liqligi, uning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati ochilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchlilik, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriylanishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Jahon adabiyotida tarbiya romanlarining shakllanish asoslari va poetik tabiati" deb atalgan birinchi bobi "Tarbiya romanlarining

badiiy adabiyotdagi genezisi va o'rni", "Tarbiya romanlarining janriy tabiati", "Tarbiya romanlarining avantyur, pikaresk va gotik romanlar bilan munosabati" nomli uch fasldan tarkib topgan bo'lib, unda tarbiya romanlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, ilk tarbiya romanlarining xususiyatlari, janriy xilma-xilligi, XVIII-XIX asr Yevropa romanchiligidagi o'rni to'g'risida fikr yuritilgan.

Tarbiya masalasi insoniyat uchun hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Bolani to'g'ri tarbiya qilish borasida donishmandlar qadim zamonlardan oq turli nasihat-yo'l-yo'riqlar berib kelishgan. Ularning purma'no fikrlari og'zaki adabiyotda ham, yozma adabiyotda ham o'z aksini topganligiga ko'plab dalillar mavjud. Tarbiya masalasi nafaqat bir oilaning baxti-kelajagi, balki butun mamlakat – Vatan taqdiri bilan bog'liq. Shu tufayli ijodkorlar bola tarbiyasi, ta'limi, taqdiri to'g'risida o'z nuqtai nazarlarini tarbiya romanlari vositasida izhor qila boshlashgan. "Tarbiya roman"larida bosh qahramonning kitobxon ko'z oldida ruhan va ma'nan ulg'ayishi va komillikka yetishishi yaqqol gavdalantiriladi. Shu ulg'ayish ortida ota-onalar va farzandlar, kattalar va bolalar, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar, ular orasidagi muammo-yu bo'shliqlarning sabablari, yoshlar taqdiri, to'g'ri va noto'g'ri amallarning oqibatlar kabi masalalar keng yoritib beriladi. Shu jihati bilan ular boshqa romanlardan ajralib turadi. Tarbiya romanlarining yana bir o'ziga xos xususiyati, ularning o'zmi-ko'pmi avtobiografik xarakterga ega ekanligidir.

Tadqiqotchi N.A.Mahmudova "Bildungsroman" (nem.) va "Роман воспитания" (rus.) atamalarining o'zbekcha ekvivalenti sifatida "Tarbiya romanlari" atamasini ishlatgan.²¹ Bildungsroman janriga ilk bor 1910-yilda "Britannika" qomusiy nashrida shunday ta'rif berilgan: "*Bildungsroman is class of novel that deals with the maturation process, with how and why the protagonist develops as he does, both morally and psychologically*"²² – "Tarbiya romani – o'sib-ulg'ayish jarayoni tasviri bilan bog'liq holda qahramonning ham axloqiy, ham ruhiy rivojlanish omillarini va sabablarini tasvirlaydigan janr sanaladi" (Tarjima o'zimizniki – Z.S.).

Kanadaning Monreal universiteti tadqiqotchisi A.Griner fikricha²³, bu janr yetuklikka hayotning turli yuksalish va pasayishlari orqali erishish jarayonlarini tasvirlaydi va u, albatta, ma'rifat davrining mashhur tushunchalari bo'lmish ta'lim va o'z-o'zini anglash bilan bog'liq.

Ingliz tarbiya romanlari paydo bo'lishini nemis yozuvchisi I.V.Gyotening "Vilgelm Meysterning o'qish yillari" (1795-1796) asari bilan bevosita bog'liq deb hisoblashadi. Tomas Mann yuqoridagi fikrga tayangan holda bu janrni "*typically German, legitimately national*" – "*nemislarga xos, qomonan milliy*" deb ta'riflaydi.²⁴ Bu fikrlar ushbu janrni jahon romanchiligiga nemis adabiyoti taqdim qilganligini tasdiqlaydi. Bu atama nemischa "*Bildung*" – ta'lim, shakllanish,

²¹ Махмудова Н.А. Чарльз Диккенс ижодида тарбия романи жанри типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – Б.8.

²² Shu manba. – B. 18.

²³ Alexandra Grenier. A Romantic Bildung: The Development of Coming-of-Age Novels in the Romantic Period (1782-1817). – August. – 2016. – P. 8.

²⁴ Abhisek Upadhyay. The Name and Nature of the Bildungsroman. International Journal of English and Studies (IJES) An International Peer-Reviewed Journal. – Volume-3, Issue-1, 2021 www.ijes.in ISSN: 2581-8333; Impact Factor: 5.421(SJIF). – P. 199.

“roman” – roman soʻzlaridan kelib chiqqan. “Bildung” soʻziga “formatio” lotincha ekvivalent boʻlib, ingliz tilida unga eng yaqin soʻz “formation” – “shakllanish” soʻzi hisoblanadi. Demak, nemischa “*buildingsroman*” atamasiga eng mos inglizcha variant “*novel of formation*” boʻladi.²⁵

N.B.Sarana “*Tarbiya romani*” (“Роман воспитания”) termini rus va Yevropa adabiyotida umumiy maʼnoni ifodalashini, yagona janr sifatida alohida qonun-qoidasi yoʻqligini taʼkidlaydi.²⁶ Janrning qatʼiy qonun-qoidaga boʻysunmasligi esa uning janriy xilma-xilligini yuzaga keltirdi. Bugungi zamon adabiyotshunosligida tarbiya romanlarining “*Entwicklungsroman*” – “*novel of development*” (rivojlanish romani), “*Erziehungsroman*” – “*novel of education or pedagogical novel*” (taʼlim romani), “*Künstlerroman*” – “*novel about an artist*” (sanʼatkorlik romani)²⁷ kabi turlari farqlanadi.

“*Künstlerroman*” (nem.) – (ingliz tilida “*Novels of an artist*”, rus tilida “*роман художника*”) – “musavvir romani” maʼnosini bildirib, sanʼatkorning yetuklikka tomon oʻsishi haqidagi nasriy asarni anglatadi va tarbiya romanlarining “shakllanish romani” turi sifatida tasniflanadi. Bu turdagi asarlar chalkashliklarning oldini olish va tor maʼnoni taʼkidlash uchun koʻpincha nemis tilidagi “*Künstlerroman*” termini bilan ataladi. Unda qahramon hayotda oʻz oʻrnini qidiradi va oxir-oqibat, koʻplab ikkilanish va sinovlardan soʻng yagona iqtidorini namoyon etuvchi ijod turini tanlaydi. Bunda tarbiya romanlarining boshqa turlaridan farqli ravishda qahramon buyuk ijodkor boʻlishni orzu qiladi va oddiy hayot tarzini qatʼiy ravishda rad qiladi. Ingliz adabiyotidan Jeyms Joysning “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” va oʻzbek adabiyotidan Alisher Mirzoning “Musavvir” romanlarini bunga misol qilish mumkin.

D.Bakli, S.Xou, N.Fridman, M.Xirsh kabi ingliz tadqiqotchilari ham bu sohada izlanishlar olib borib, Bildungsroman janriga oid asarlarni “*The novel of formation*” (Shakllanish romani), “*The novel of youth*” (Yoshlik romani), “*The novel of education*” (Taʼlim romani), “*The novel of apprenticeship*” (Shogirdlik romani), “*The novel of adolescence*” (Oʻsmirlik romani), “*The novel of initiation*” (Inisiatsiya – Tashabbus romani), “*The life-novel*” (Hayot romani) singari turlarga ajratishadi.²⁸

A.V.Dialektova tarbiya romanlarining nazariy asoslarini yoritib, ularda qahramonning hayoti sarguzasht romanlarida boʻlgani kabi kurash maydoniga emas, maktabga aylanishini taʼkidlaydi.²⁹

J.Bakli tadqiqotlarida³⁰ Ch.Dikkensning “*Devid Kopperfild*” romani birinchi ingliz tarbiya romani deb taʼkidlangan. Jeyms Joysning “Musavvirning yoshlikdagi

²⁵ Shu manba – B. 199.

²⁶ Сарана Н.В. Традиция английского романа воспитания в русской прозе 1840—1860-х годов. Специальность 10.01.01 “Русская литература”: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук НИУ ВШЭ. – Москва, 2018. – С. 37.

²⁷ Камардина Ю.С. Английский роман воспитания XIX века: учеб.-метод. пособие для студентов профильной подготовки “Иностранный язык” и “Русский язык и литература”. — Балашов: Николаев, 2015. – С. 14.

²⁸ Shu manba – B. 11.

²⁹ Дialektova A.B. Воспитательный роман в немецкой литературе эпохи. Просвещения. – Саранск: Изд-во СГПИ, 1972. – С. 36.

³⁰ Махмудова Н.А. Чарльз Диккенс ижодида тарбия романи жанри типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – Б.23.

shamoyili” romani esa “Kunstlerroman” – ijodkorning rivojlanishi romani sifatida tilga olingan. Uning fikricha, ingliz tarbiya romani har safar o’zini yangicha ko’rinishda namoyon qiladi va romandan romanga o’zgarib boradi. O’zining “Season of Youth: The Bildungsroman from Dickens to Golding” (1974) asarida u Ch.Dikkens, J.Eliot, Lourens, T.Hardi va J.Joys asarlarida “Bildungsroman” – tarbiya romanining kuchli nafasini his qilganini aytadi.³¹

I.Vlodavskaya ingliz tarbiya romanlari syujetining uchta zaruriy komponentini ajratib ko’rsatadi: a) qahramonning bolaligi (ko’pincha o’gay ota uyini tark etishi bilan yakunlanadi); b) o’qish yillari va sargardonlik yillari (Gyote formulasi bo’yicha); v) qahramonning o’z-o’zini anglab yetishi.³²

Tarbiya romanlari, odatda, I shaxs tilidan hikoya qilinadi va ko’pincha bosh qahramonning ismini bevosita sarlavhada aks ettiradi. Masalan, “Emma”, “Jeyn Eyrr” va “Devid Kopperfeld” kabi asarlar protogonist nomi bilan atalganining guvohi bo’lish mumkin.³³ Bu romanlar syujeti aksariyat hollarda yo’qotish, sayohat, mojaro va shaxsiy o’sish, yetuklik, baxtli yakun kabi mavzular izchilligida rivojlanib boradi.

M.M.Baxtinning fikricha³⁴, tarbiya romani o’ziga xos shakllanish romani bo’lib, u statik qahramonni emas, balki voqealar davomida rivojlanib, o’zgarib turadigan qahramonni taqdim qiladi. Tarbiya romani “keng ma’nodagi pedagogik g’oya”ga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

V.Pashigorevning ta’kidlashicha³⁵, tarbiya romanlarining vazifalari har bir mamlakat uchun har xil. Demak, nemis, ingliz, amerika, rus va boshqa xalqlar tarbiya romanlari haqida alohida so’z yuritish mumkin. Masalan, nemis tarbiya romanlari bosqichlilikka asoslanadi, ingliz romanlarida qahramon o’z ongida yashaydigan axloqiy va fuqarolik me’yorlari tufayli o’zligini topa oladi. Amerika tarbiya romanlari qahramoni madadni o’zidan qidirishi, o’zini-o’zi boshqarish qobiliyatini egallashi bilan ajralib turadi. Rus va o’zbek tarbiya romanlari uchun qahramonning to’liq shakllanmaganligi, uning yaxshi tomonga o’zgarishga intilishi bu yo’lda xatolarga yo’l qo’yishi xarakterlidir.

Viktoriya asri Bildungsromanining janr xususiyatlari quyidagilarni o’z ichiga oladi: 1) avtobiografik; 2) kelib chiqish tarixi (yetimlik holati, homiylarni izlash, turmush tarzini o’zgartirish); 3) ta’lim (romanning asosiy o’zagi); 4) sinovlar, sargardonliklar, sayohatlar; 5) ichki ziddiyat; 6) farovonlikka yetishish, moddiy shakllanish; 7) sevgi sinovlari.

Tarbiya romanlarining avantiyur, gotik, pikareshk (ayyorlik) va boshqa bir qator roman turlari bilan uzviy bog’liqligi ko’rinadi. Jumladan, Mark Tvenning

³¹ Abhisek Upadhyay. The Name and Nature of the Bildungsroman. International Journal of English and Studies (IJES) An International Peer-Reviewed Journal. – Volume-3, Issue-1, 2021 www.ijoes.in ISSN: 2581-8333; Impact Factor: 5.421(SJIF). – P. 201.

³² Влодавская И.А. Поэтика английского романа воспитания начала XX века. Типология жанра. – Киев: Вища школа, 1983. – 183 с.

³³ <https://www.masterclass.com/articles/what-is-a-bildungsroman-definition-and-examples-of-bildungsroman-in-literature>

³⁴ Бахтин М.М. Роман воспитания и его значение в истории реализма / М.М. Бахтин // Эстетика словесного творчества. – М., 1979. – С. 213.

³⁵ Пашигорев В.Н. Роман воспитания в немецкой литературе XVIII-XX веков. Генезис и эволюция: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Моск. пед. гос. ун-т, 2005. – С. 29.

“Geklberri Finning sarguzashtlari”, Sh.Brontening “Jeyn Eyr”, Ch.Dikkensning “Katta umidlar”, T.Malikning “Alvido bolalik”, G.G’ulomning “Shum bola”, E.Malikning “Bolalik va o’smirlik ko’chalari” asarlari bosh qahramonning o’z uyidan yiroqda kechgan hayotiy sarguzashtlarini hikoya qilish orqali o’zida avantiyur roman belgilarini mujassam qiladi. Bundan tashqari, tahlillar natijasida Mark Tven qabrison va kimsasiz orolning sirli tasvirlarida, Sh.Bronte Jeyn Eyr qamab qo’yilgan sovuq “qizil xona” vahimasi va janob Rochester qasridan chiqadigan noma’lum tovushlarda, Ch.Dikkens botqoqlikdagi qochoq mahbus obrazida, T.Malik Asrorni tinch qo’ymagan Qayum akaning ruhi va sharpalarida, G.G’ulom “o’likni tikish” va “ho’kizni so’yish” sahnalarida gotik uslubga xos elementlardan mohirlik bilan foydalanganligi kuzatiladi.

Gotik adabiyot birinchi marta Yevropada 1700-yillarning oxirlarida mashhur bo’lgan badiiy adabiyotning bir tarmog’idir. Odatda, ularda voqealar qo’rqinchli, sirli va romantik elementlarning kombinatsiyasi asosida hikoya qilinadi. Yozuvchilar qorong’i, tashlandiq uylar, binolar yoki vahimali kiyingan noodatiy xarakterli obrazlar yordamida gotik romanlarga xos sirlikni hosil qilishadi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o’zbek tarbiya romanlari syujet va kompozitsiyasidagi tipologik belgilar”** nomli ikkinchi bobi “Ingliz adabiyotida tarbiya romanlarining badiiy takomil xususiyatlari”, “O’zbek adiblari ijodida tarbiya romanlari belgilari”, va “Tarbiya romanlarida maktab hayoti tasviri” nomli uch fasldan tarkib topgan.

Ingliz tarbiya romanlari, asosan, realizm va tanqidiy realizm ruhida yaratilgan bo’lib, ularning aynan shu yo’nalishda yaratilishiga sabab o’sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli ko’chalarning yetim bolalarga to’lib ketganligi deb aytish mumkin. Chunki, yozuvchi yetim bolalar hayoti va taqdiri orqali jamiyatning turli jabhalari va qatlamlarini yoritishga imkon topa olardi. O’zi tanlagan qahramonning johillik girdobidan omon chiqib, yetuklikka erishishi, insoniy tuyg’ularini saqlab qolishi tasvirlari ijtimoiy vaziyatning inson taqdiriga ta’sirini ko’rsatishda qulay vosita bo’lib xizmat qiladi.

Tarbiya romanlarining aksariyati asar kompozitsiyasining muhim qismi hisoblangan ekspozitsiyani kitobxonga taqdim qilishdan boshlanadi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, qahramonning yetim qolishi va achchiq hayot haqiqatlari bilan yuzlashishi tarbiya romanlariga xos ibtidodir. Aytish joizki, ingliz tarbiya romanlarining eng taraqqiy etgan cho’qqisi Ch.Dikkens ijodida kuzatiladi. Ingliz tanqidiy realizmining yirik namoyandalaridan biri Ch.Dikkens ijodini adabiyotshunos B.Hofman ta’riflar ekan: *“Orphans and orphanhood is everywhere in Dickens”*³⁶ – “Yetimlar va yetimlik Dikkensning hamma yerida bor”, – deydi. Ishda yozuvchining “Oliver Twist”, “Devid Kopperfild”, “Katta umidlar”, “Nikolas Niklbi” hamda “Dombi va o’g’li” romanlari tahlilga tortildi va janr belgilarining namoyon bo’lishi o’rganildi.

Tarbiya romanlarida aksariyat hollarda bosh qahramon sifatida yetim bola tanlanishidan maqsad yozuvchilar qahramonning aynan yetim bo’lganligi tufayli qiyinchiliklarga uchrashi, ularni yengib o’tish jarayonida shaxs sifatida o’sib

³⁶ Hochman, Baruch and Ilja Watches. Dickens: The Orphan Condition. – London: Associated University Press, 1999. – 225 p.

borishi, dunyoni anglab, xatolaridan xulosa chiqarishi va nihoyat muvaffaqiyatli insonga aylanishini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, yetimlar hayoti, ular uchun yaratilgan yoki yaratilmagan sharoitlar, turli qatlam vakillarining ularga bo'lgan munosabatlari tasviri o'sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitini yoritib berishga ham xizmat qilgan. Ingliz adabiyotida, ayniqsa, "Viktoriya asri" adabiyotida "yetim" atamasi bugungidan biroz kengroq ma'noda tez-tez tilga olinadi hamda har ikkala boquvchisi: ota-onasini yo'qotgan chin yetimlarni, ularning biridan ajralgan yarim yetimlarni yoki ota-onasi tomonidan voz kechilgan tirik yetimlarni nazarda tutadi. Reynolds bu davr adabiyoti haqida fikr yuritarkan, "*the most famous age of orphan stories*" – "*yetim hikoyalarning eng mashhur asri*", deb ta'riflaydi.³⁷ Laura Ptersning "*Orphan texts*" kitobida keltirilgan jumlarlar ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi: "*One can hardly open a novel by Dickens, the Brontë sisters, or George Eliot without stumbling over at least one orphan*" – "Kishi Dikkens, Bronte opa-singillar yoki Jorj Eliotning romanlarini o'qir ekan, ularda hech bo'lmaganda bitta yetimga duch kelmaslikning iloji yo'q".³⁸

Bu davrda Angliya ko'chalarida yetim bolalar ko'p bo'lganligi tarixiy haqiqatdir. Tug'ruq paytida ko'plab ayollarning o'limi tufayli Viktoriya davridagi bolalarning ota-onasidan kamida bittasini yo'qotish ehtimoli yuqori edi. Bundan tashqari, qashshoqlik, ochlik va turli kasalliklar ham ko'pgina bolalarni yetim bo'lib qolishga mahkum qilardi. Tanlangan qahramonlar oldingilariga qaraganda yosh va beg'ubor bo'lib, yolg'izlikdan aziyat chekishardi. Shu tufayli bu qahramonlar o'z hayot yo'llari davomida turli toifadagi insonlarga to'qnash kelishadi. Ulardan ba'zan mehr-shafqat ko'rsa, ba'zan, aksincha, jabr-zulm ko'rishadi.

Ingliz tarbiya romanlarining o'ziga xos belgilari borasida adabiyotshunolar va tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan xulosa va nazariy qarashlar bir-biridan biroz boshqacha ko'rinsa-da, umuman olganda ularning barini quyidagi xususiyatlar birlashtirib turadi: 1. Yo'qotish. Qahramon, odatda, ota-onasini yoki ulardan birini yo'qotadi. 2. Sayohat. Nohaqliklardan charchagan bosh qahramon qalbidagi savollarga javob topish va orzularini ro'yobga chiqarish maqsadida yoki shunchaki, dunyoni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan hayotiy tajribaga ega bo'lish uchun sayohatga chiqadi. 3. Sinov (mojaro). Qahramon turli sinovlar jarayonida toblanib, ruhan o'sib boradi. 4. Yetuklik yoki shaxsiy o'sish. Qahramonning hayotga qarashlari roman oxirigacha o'zgarib, yetuklikka erishadi. Bunda ularga kimdir yordam berishi yoxud o'zlari kimgadir yordam berishi tasvirlanadi. 5. Baxtli yakun: deyarli barcha tarbiya romanlari nihoyasida bosh qahramon xatolaridan xulosa chiqaradi, orzulariga, maqsadlariga erishadi. Boshqacha aytganda, qahramon o'zi izlagan savollarga javobni, ya'ni hayotida yetishmayotgan ma'noni topadi.

O'zbek adabiyotida tarbiya romanlari ingliz adabiyotidan ancha kech, ya'ni XX asrning oxirlarida shakllana boshlaganini ta'kidlab o'tish joiz. Ammo, ungacha S.Ayniyaning "Yetim", "Odina", G'.G'ulomning "Shum bola" qissalari yaratildiki, ularda tarbiya romanlariga xos belgilarni yaqqol ko'rish mumkin. Bu qissalarda

³⁷ Marion Gymnich, Barbara Puschmann-Nalenz, Gerold Sedlmayr and Dirk Vanderbeke. *The Orphan in Fiction and Comics since the 19th Century*. Cambridge scholars publishing, 2018. – P. 2.

³⁸ Shu manba. – B. 20.

qahramonning mashaqqatli hayot yo'li, sinovlari, sarguzashtlari va kamolga yetish jarayonlari turli toifadagi insonlar bilan kechadigan mojaroli munosabatlari orqali yoritilgani bilan tarbiya romanlarini yodga soladi. Ularning barida bosh qahramon – yetim bola bo'lib, boylarning ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishlari, qiynoqlarga solishlari, haqorat qilishlari, qisqasi, adolatsiz munosabatlari o'z aksini topgan. Ammo, ular roman darajasiga ko'tarilmagan va kichikroq nasriy asar – qissa shaklida yozilgan.

O'zbek adabiyotida tarbiya romanlari belgilari, ayniqsa, X.To'xtaboyev ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adibning "Jannati odamlar", "Mungli ko'zlar", "Besh bolali yigitcha" asarlari bu borada ahamiyatli. Ularda yetim bolalar obrazlari real kechinmalar va samimiy tuyg'ular tasviriga boyligi bilan alohida ajralib turadi. "Jannati odamlar"da otasi quloq qilinib, kaltaklanishi oqibatida vafot etgan, onasi esa xolasidan qolgan to'rt bolaga g'amxo'rlik qilsin deb yoshi bir joyga borib qolgan pochchasiga – xolasining eriga turmushga berib yuborilgan Rahmonberdining bobo-buvisi qaramog'ida kechirgan hayoti tasvirlangan. "Besh bolali yigitcha"da esa otasi urushga chaqirilib, onasi og'ir mehnatdan vafot etgach, hayot mashaqqatlarini juda erta yelkasiga olgan, besh ukasi taqdiriga o'zini javobgar sezgan, qiyinchiliklarga qaramay yashash uchun kurashishga mislsiz matonatni topa olgan Orifjonning ayanchli hayoti tasviri qalamga olingan. Ikki asar ham yetim qolgan sodda bola tilidan hikoya qilib berilsa-da, bu qahramonlarning hayoti bir-biridan tubdan farq qiladi. Rahmonberdi yetimligi alamini mehribon bobo-buvisiga erkaliq qilib yengmoqchi bo'ladi, ammo Orifjonda bunday imkoniyat yo'q. Orifjonda erkanishga biror yaqin insoni ham, ko'nglini bo'shatishga biror dardkashi ham, joniga oro kiradigan suyanchig'i ham yo'q. Uning boshiga tushgan musibatlar yuraklarga qayg'u-alam yukini ortadi. Shunga qaramay, X.To'xtaboyev ijodi yumorga boyligi, bolalarning tabiati, xususiyatlari, ruhiy kechinmalari nihoyatda qiziqarli va bolalarbop yo'sinda mahorat bilan tasvirlangani jihatidan ajralib turadi.

"Jannati odamlar" avtobiografik asar bo'lib, unda adib o'z yoshligini tasvirlagan. Yosh qahramonning sarguzashtlari ham, sinovlari ham mana shu kekxa bobosi va buvisi yonida kechadi. Ya'ni, ular boshiga tushgan har bir tashvishni o'ziniki deb qabul qilgan bola, kattalar bilan barobar kuyinadi, qiynaladi. "Besh bolali yigitcha" asarida esa ingliz asarlarida uchragani kabi yetimlarning haqiga ko'z olaytirgan, ularning tekin mehnatidan foydalanishga uringan noinsof kishilar qiyofasi namoyon bo'ladi. Romanning bu jihati S.Ayniyning "Yetim", "Odina", G'.G'ulomning "Shum bola", E.Malikning "Bolalik va o'smirlik ko'chalari" kabi asarlari bilan ham mushtaraklik kasb etadi.

